

## Asosiy ko'rsatkichlari.

2018 yilning 1 oktabr holatiga bankning jami aktivlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 010,4 mlrd.so'mga yoki 1,2 barobarga o'sgan. Daromad keltiruvchi aktivlar umumiy aktivlarning 89,1 % tashkil qildi.

Bank kapitalining hajmi 2017 yil 1 oktabrga nisbatan 1,3 barobarga o'sgan.

Bank daromadlarining hajmi ko'payib bormoqda va olingan sof foyda miqdori o'z navbatida 86,7 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

### "Asaka" bank aktsiyadorlari ro'yxati

No	Aktsiyadorlar nomi	Aktsiyalar miqdori (dona)	Aktsiyalar paketining nominal qiymati	Ulushi (%)da
1	O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	10 453 358 750	1 453 121 399 837,50	69,23%
2	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	3 269 047 234	454 430 255 998,34	21,65%
3	"O'zavtosanoat" Aktsiyadorlik Kompaniyasi	540 575 100	75 145 344 651,00	3,58%
4	"Olmaliq TMK" AJ	254 627 307	35 395 741 946,07	1,69%
5	"Buxoro NQZ" UK	228 005 694	31 695 071 522,94	1,51%
6	"Navoiy KMK" DK	97 892 577	13 608 047 128,77	0,65%
7	"O'zbekiston temir yo'llari" DATK	95 635 395	13 294 276 258,95	0,63%
8	"O'zbektelekom"	50 445 054	7 012 366 956,54	0,33%
9	Farg'ona NQIZ USHK	40 178 574	5 585 223 571,74	0,27%
10	Uzmetkombinat" AJ	40 178 574	5 585 223 571,74	0,27%
11	"Uzagrosugurta" DASK	19 370 783	2 692 732 544,83	0,13%
12	"Uzbekinvest" NKEIS	4 698 000	653 068 980,00	0,03%
<b>JAMI</b>		<b>15 098 678 642</b>	<b>2 098 867 318 024,42</b>	<b>100,00%</b>

## **Uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha.**

2018 yil boshida «Asaka» bank tomonidan 7 264,7 mlrd.so'm miqdorida uzoq muddatli investitsion loyihalar moliyalashtirilgan, shu jumladan iqtisodiyot sektorlari:

Sanoat – 5 653,1 mlrd.so'm.

Qishloq ho'jaligi – 589,02 mlrd.so'm.

Qurilish – 475,28 mlrd.so'm.

Transport va aloqa – 68,29 mlrd.so'm.

Ijtimoiy soha – 192,04 mlrd.so'm.

Moddiy texnik baza – 19,41

Boshqa maqsadlar – 264,54 mlrd.so'm.

Ushbu loyihalarni moliyalashtirish natijasida 1 752 ta yangi ishchi o'rinlar barpo etilgan.

«Asaka» bank tomonidan respublikaning barcha regionlarida aholini uy-joy qurilishi fondi bo'yicha quruvchi tashkilotlarga kredit ajratish yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 447,87 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratilgan, jumladan viloyatlar kesimida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi - 124,2mlrd. so'm

Andijonviloyati –47,01mlrd.so'm

Buxoro viloyati –21,46mlrd.so'm

Jizzax viloyati –68,00mlrd.so'm

Kashkadaryo viloyati –35,94mlrd.so'm

Navoiyviloyati– 1,0mlrd. so'm

Surxondaryo viloyati –78,31 mlrd.so'm

Sirdaryo viloyati –41,7 mlrd.so'm

Toshkent vil. – 16,0 mlrd. so'm

Farg'ona viloyati –30,47 mlrd. so'm

Xorazm viloyati –10,56 mlrd. so'm

Toshkent sh - 3,2 mlrd. so'm

## **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha.**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun 2 426,8 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Jumladan, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 96,3 mlrd.so'mni, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kredit mablag'lari 324,3 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qarorlariga asosan oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar 247,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar 732,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2018 yil yanvar-sentyabr oylari davomida "Asaka" bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar hisobiga 4 492 nafardan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

## **Bank depozitlari bo'yicha**

2018 yil 1 oktyabr holatiga "Asaka" bankning jami aholi omonatlari qoldig'i miqdori o'tgan yilga nisbatan 102 foizga oshgan bo'lsa, shundan muddatli omonatlar qoldig'i o'tgan yilga nisbatan 103 foizga ortdi.

Bank bo'yicha jami 38 ta omonat turi mavjud bo'lib, shundan 26 tasi milliy valyutadagi va 12 tasi xorijiy valyutadagi omonatlar.

Jismoniy shaxslarning o'z omonatlari to'g'risida ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi "SMS-banking" xizmatidan foydalanuvchilar soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 131 mingtadan oshib ketdi.

Savdo va pullik xizmatlar orqali tushumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 168% ga oshgan.

Kommunal xizmatlardan tushumlar plastik kartalar bilan birga o'tgan yilga nisbatan 102 foizga oshgan.

## **Plastik kartochkalar biznesini rivojlantirish bo'yicha.**

Bank tomonidan 2018 yil 1 oktyabr holatiga 1mln. 940 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 938 donaga ko'paygan.

2018 yilning 1 oktyabr holatiga bank tomonidan 11 096 ta terminal o'rnatilgan, shundan savdo terminallari 10 268 donani tashkil qiladi.